

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

H.M.Abdunazarov, M.H.Umarova	272
Surxondaryo viloyati o'simliklar olamining geografik tarqalishi.....	272
A.K.Ergashev	
Avstraliya materigi yer usti suvlari tarqalishining hududiy xususiyatlari (daryolar misolida).....	277
R.T.Pirnazarov, S.I.Usmonova	
O'zbekiston va unga tutash tog'li hududlardagi to'g'onli ko'llar, ularning tadqiq etilishi va ular bilan bog'liq muammolarning keskinlashuvi.....	282

ILMIY AXBOROT

D.I.Ibragimova	
Isajon Sultonning tarixiy hikoyalarida mavzu va g'oya	290
Sh.A.Yuldashev, S.Muhammadjonova	
Optoelektronikada qo'llash uchun optronlar yaratish	293
A.A.Ergashev	
Nota muharriri finale-2003 ning amaliyotda qo'llanishi	298
I.Rustamov	
Yangi O'zbekistonda yaratilayotgan doira darsliklari va ularning ta'lim samaradorligini oshirishdagi roli	302
M.Nasridinova	
Yangi O'zbekiston yoshlарining ma'naviy-axloqiy-estetik dunyoqarashini yuksaltirishda musiqa san'atining o'rni.....	306
M.V.Nasridinov	
Ingliz va o'zbek tillarida "Maqsad" konseptining morfologik sathlararo verbalizatorlari struktural-semantik turlari maydoni	310
G.O.Shaxbazova	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash tizimini modernizatsiyalashning ijtimoiy-pedagogik zarurati	315
N.N.Norxo'jayeva	
Oliy texnik ta'lim muassasalari talabalarining kreativ-grafik kompetentligini rivojlantirish komponentlari va kriteriyalarining pedagogik mazmuni.....	318
D.R.Ismoilova	
Ingliz va o'zbek tillaridagi "Jinoyat" semantik maydoni	322
D.B.Toshpo'latova	
Malakaviy amaliyot vositasida talabalarni amaliy pedagogik va boshqaruv faoliyatiga tayyorlashga innovatsion yondashuv.....	326
M.Ф.Рахмоналиева	
Медиаобразование и медиакомпетентность в современном социокультурном контексте в преподавании английского языка для студентов технического института.....	332
M.F.Adasheva	
Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	336
U.Q.Maqsudov, M.O.Yuldasheva	
O'qish savodxonligining asosiy tushunchalari va bolalar rivojlanishidagi roli	340
M.A.Abdujalilova	
Brief theoretical and historical roots of lingo-culture science. Lingo-cultural brief analysis of household items lexemes	348
U.T.Isakov	
O'zbek musiqa madaniyatini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari.....	351
U.U.Xolova	
Abu Ali Ibn Sino va tasavvuf	356
T.Q.Jabborxonov, F.Sh.G'apporov, A.F.Raxmataliyev, Z.O.Yusupov	
O'rta Osiyoda tarqalgan Inula L. Turkumiga mansub turlarning ekologik mintaqalarda tarqlash tahlillari	360
Y.Y.Turakulov	
Pedagoglar kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari.....	366



UO'K: 78.01:781.7(575.1)

O'ZBEK MUSIQA MADANIYATINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИССЛЕДОВАНИЯ УЗБЕКСКОЙ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR THE RESEARCH OF UZBEK MUSICAL CULTURE

Isakov Ulug'bek Tuxtasinovich

Farg'onan davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek musiqa madaniyatini rivojlanish jarayonlarini aks ettirgan ilmiy izlanishlar, sohani o'rghanishda muhim ahamiyat kasb etayotgan metodologik asoslar, shuningdek yurtimizda amalga oshirilayotgan musiqa madaniyatini yuksaltirish, tarixiy-madaniy va diniy-ma'rifiy qadriyatlarni qayta tiklash va buyuk ajdodlarimizning ma'naviy-axloqiy, madaniy merosini o'rganish masalalari tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье анализируются научные исследования, отражающие процессы развития узбекской музыкальной культуры, методологические основы, имеющие важное значение в изучении отрасли, а также реализуемые в нашей стране вопросы повышения музыкальной культуры, возрождения историко-культурных и религиозно-просветительских ценностей, изучения духовно-нравственного, культурного наследия наших великих предков.

Abstract

This article analyzes scientific research that reflects the processes of development of Uzbek musical culture, methodological foundations that are important in the study of the field, as well as the issues of raising the musical culture carried out in our country, reviving historical-cultural and religious-educational values and studying the spiritual and moral, cultural heritage of our great ancestors.

Kalit so'zlar: arxeologiya, yozma yodgorliklar, etnografik materiallar, xalq og'zaki ijodi, formatsiya, konsepsiya, "Avesto", milliy qadriyatlar, ma'naviyat.

Ключевые слова: археология, письменные памятники, этнографический материал, устное народное творчество, формирование, понятие, "Авеста", национальные ценности, духовность.

Key words: Archaeology, written monuments, ethnographic materials, folk oral creation, formation, concept, "Avesto", national values, spirituality.

KIRISH

Yurtimizda amalga oshirilayotgan yangilanish va rivojlanish siyosatining strategik maqsadi mustahkam ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni negizida yangi jamiyat barpo etishdir. Musiqiy madaniyatni yuksaltirish, olib borilayotgan islohotlar samaradorligini oshirishda, mamlakatda demokratik tamoyillarni qaror toptirishda hamda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek xalqining tarixiy-madaniy va diniy-ma'rifiy qadriyatlarni qayta tiklash va buyuk ajdodlarimizning ma'naviy-axloqiy, madaniy merosini o'rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Bunda O'rta Osiyoda yashab, ijod qilgan san'at namoyondalarining ilmiy-madaniy merosi, shuningdek, sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirishga yordam beradigan milliy musiqa san'ati muhim ahamiyat kasb etadi. "Nega deganda, agar insonning qulog'iga engil elpi, tumtaroq ohanglarga o'rnashib qolsa, bora-bora uning badiiy didi, musiqa madaniyati pasayib ketishi, uning olamini soxta tushunchalar egallab olishi ham hech gap emas. Oxir-oqibatda bunday odam "Shashmaqom" singari milliy merosimizning noyob durdonalarini... qabul qilishi qiyin bo'lib qoladi"[1:143].

Xalqimiz o'zining ko'p asrlik tarixi davomida o'ziga xos rivojlanish bosqichini, turmush tarzini, falsafa va o'ziga xos madaniyatni yaratdi. Ana shu o'ziga xos milliylik, ayniqsa, uning musiqa madaniyatida to'la namoyon bo'lgandir. Shuning uchun ham milliy musiqasiz xalq ruhini ko'tarib, uning qalbiga yo'l topib va uni buniyodkorlik ishlariiga safarbar etib bo'lmaydi, chunki milliy musiqada u xalqning asrlar osha to'plagan hissiy bilim va tajribalari, quvonch va tashvishlari, dard va alamlari o'z ifodasini topgandir.

Bugungi kunda milliy musiqamizning komil inson shaxsini shakllantirishdagi ahamiyati va roliga yangicha yondashish nihoyatda zarur bo'lib qoldi. Musiqa olamni bilish, his qilish, idrok etish va uning go'zalliklaridan lazzatlanishning alohida bir shaklidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

So'nggi yillarda olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlar natijasida shu narsa aniq bo'lmoadaki, vatanimiz hududida qadimgi sivilizatsiyaning paydo bo'lishi va shakllanishi uzoq asrlarni o'z ichiga oladi. Vatanimizning eng qadimgi davrlariga - ilk tosh asriga oid bo'lgan Selung'ur, Ko'kbuloq, Qo'turbuloq, Uchtut kabi makonlar ochildiki, ulardagi topilmalarga qarab, haqli ravishda Markaziy Osiyo odamzodning ilk ajdodlari paydo bo'lgan mintaqaga kiradi, degan g'oyani ilgari surish imkoniyati tug'iladi. Bu mintaqada yashagan qadimgi qabilalar baliqchilik, hunarmandchilik, dehqonchilik va chorvachilik madaniyatlarini egallaganlar[2:6]. Eslatib o'tamiz ilk musiqiy folklor namunalari asosan o'troq xalqlar ijtimoiy hayotida uchragan.

O'zbek xalqiga xos Markaziy Osiyo ikki daryo oralig'idagi irqning shakllanish davri, makoni va tarixi masalalarida fanda yaqingacha yagona fikr yo'q edi. Bir guruuh olimlar bu irq bundan 6-8 ming yil ilgari, ikkinchi guruuh mutahassilar 3 ming yil ilgari shakllangan desa, uchinchi bir guruuh olimlari esa XVI asrda shakllandi deb hisoblar edilar. Antropologik izlanishlar natijasida mualliflar ikki daryo oralig'i irqining shakllanishi, juda boy antropologik ma'lumotlar asosida, bundan 2200-2300 yil ilgari boshlanganini isbotladilar. Qator ilmiy asarlarda o'zbek xalqining shakllanishida sakkiz muxim davr sanab o'tilardi. Bular qatorida Ahmoniyalar, Iskandar, Arablar va Mo'g'ullar istilosini tilga olinadi. Haqiqatdan, bu zabit etishlar Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatiga, tiliga, turmush tarziga albatta shu bilan birga ajdodlarimiz musiqa madaniyatini shakllanish va rivoj topish omillariga o'z ta'sirini o'tkazgan. Ammo bu yurishlarning mahalliy xalqlarni irqiy va etnik tarixiga bo'lgan ta'siri kam bo'lganini alohida ta'kidlab o'tmoqchimiz.

Bevosita Markaziy Osiyoda ibtidoiy jamaa tuzumi davriga oid tadqiqotlar hususida to'xtar ekanmiz, A.Okladnikov, V.Masson, V.Ranov, YA.G'ulomov, O'.Islomov, A.Asqarov, M.Qosimov va boshqa olimlarning Markaziy Osiyo hududida ibtidoiy odamning tarqalish jarayoni, qadimgi makonlarning geografik joylashuvi, toshdan qurollar yasash uslublari xo'jalikning rivojlanishi va oilalarning paydo bo'lishi, ibtidoiy mafkura, xo'jalik turlari, metallning hunarmandchilikka kirib kelishi masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarni ko'rsatib o'tish mumkin. Bu davrni o'rganishning o'ziga xos hususiyati, uni qadimgi mualliflar qoldirgan yozma manbalar asosida o'rganib bo'lmaydi[2:11].

Shuning uchun ham bu davr tarixini o'rganishda arxeologiya, antropologiya, etnografiya kabi fanlarning ahamiyati kattadir. Bu fanlar to'plagan materiallarni solishtirish usuli bilan uzoq o'tmishdagi moddiy va ma'naviy madaniyatning ko'pgina tomonlarini tiklash mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Akademik A.Muhammadjonov yozishicha O'rta Osiyo xalqlarining, Markaziy Osiyoda eng qadimgi davlat uyushmalarning paydo bo'lishi juda muhim masaladir. I.A.Karimovning "Hozirgi davr davlatchilik tariximiz tub burilish pallasiga kirgan bir paytda o'zimizning zamon va makondagi o'rnimizni aniq belgilab olishimiz lozim" deganlari ming bor haqiqatdir. Chunki Markaziy Osiyodagi ilk davlat uyushmalari haqidagi yozma ma'lumotlar juda kam saqlanib qolgan. Ba'zi bir ilmiy adabiyotlarda Markaziy Osiyoda Eron ahmoniyalarigacha qadimgi davlat uyushmalari bo'lganmi yoki bunday davlat uyushmalari mavjud emasmidi degan muammo hozirgacha to'la echimini topgan emas. Ma'lumki, Markaziy Osiyoda ilk davlat tuzumi vujudga kelishini yoritib beradigan asosiy yozma manba "Avesto" va qadimgi dunyo mualliflari qoldirgan ma'lumotlardir. Mavjud yozma manbalar, arxeologik tadqiqotlar bilan solishtirilganda bu makonda qadimgi davlat uyushmalari bo'lganligini isbotlovchi ishonchli dalil, ashyolar mavjud ekanligi ilmiy asosda tahlil qilib beriladi. O'tgan asrning oxiri va asrimizning boshlarida Avestodagi ma'lumotlar, Geradot va Gekatey asarlari "Katta Xorazm" shuningdek, Ktesiyning Qadimgi Baqtriya podsholigi haqidagi ma'lumotlari Markaziy Osiyoda ilk davlat uyushmalarining paydo bo'lishi va ushbu davr musiqa madaniyatiga

ILMIY AXBOROT

oid muammolarini o'rganish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotchilarimiz ilmiy xulosalarida bu davlatlarning shaklanish jarayoni Eron ahmoniyarigacha bo'lgan davrda, deb hisoblaydilar va uni miloddan avvalgi 9-7 asrlar bilan bog'laydilar (M.Dunker, V.Tomashek, F.Alptxaym, S.P.Tolstov, M.M.Dyakanov, I.M.Dyakanov, B.G.G'ofurov, A.Sagdullaev va boshqalar). Yunon olimi Geradotning ma'lumotlariga qaraganda, Markaziy Osiyoda "Har tomoni adrlar bilan o'ralgan tekislikda qachonlardir xorazmiylar yashagan". Ko'pchilik tadqiqotchilar bu markazni hozirgi Xorazm o'rnidagi bo'lmasdan, janubroqda, Marv (Turkmaniston) yoki Xirot (Afg'oniston)da bo'lgan - deyishadi. Biroq, mil.avv. 2 ming yillikning o'talariga yaqin davrda "Katta Xorazm" davlati mavjud bo'lganligiga shubha qilmasa bo'ladi. Sopollitepadagi yana ilk davlat uyushmasi Qadimgi Baqtriya davlatidir. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, uning tarkibiga So'g'd va Marg'iyona ham kirgan. Yunon muallifi Ktesiy Baqtriya haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Tarixchi olim Baqtriya davlatidagi ko'plab shaharlar, mustahkam poytaxt shahar Baqtro (Balx), Baqtriya podshosi Oksiart, uning bitmas tunganmas boyliklari haqida hikoya qiladi. Gerodot Baqtriyani Misr va Bobil kabi yirik davlatlar qatorida tilga oladi. Baqtrianing tabiy boyliklari undan tashqari hududda yoki Old Osiyoga qadar ham mashhur edi.

Saymali tosh darasidagi qoyatosh sur'atlarini biz o'rganayotgan davr san'atining ilk namunasi, deb atash mumkin. Farg'ona tizma tog'larining Kukigart davoni yaqinidan topilgan bu qoyatoshlardi sur'atlar majmuasi qadimgi Farg'ona aholisining boy ma'nnaviy madaniyatidan yaqqol dalolat beradi. Saymali tosh qoya sur'atlarining ilk davriga xos juda ko'p qismini shakli majmular tashkil etadi va ular nihoyatda aniq nuqtalar bilan grafik tarzda ifoda etilgan. Arxeologik tadqiqotlarni o'rganish orqali shu narsalar ayon bo'ldiki, saroy rasmiy tantanalari va turmushda musiqa katta ahamiyatga ega bo'lgan. Nay, ud, nog'ora, arora, qayrilgan shox shaklidagi karnay, kamoncha bilan chalinadigan asboblar mavjud bo'lgan. Qo'shiqchilar, raqqoslari, ko'zbo'yamachilar bo'lgan. Afrosiyob shaharchasidan topilgan loydan yasalgan haykalchalar, shaklli tasvirlar, moychiroqlar va boshqa buyumlar o'ziga alohida e'tiborni tortadi. Bu davrda Xind daryosining yuqori oqimidagi viloyatlar va Markaziy Osiyo xalqlari davlat ishlarida oromiy yozuvidan foydalanganlar. Keyinroq esa oromiy yozuvidan to'rtta yozuv ajralib chiqdi. Bular parfiya, so'g'd, baqtriy va Xorazm yozuvlari bo'lib, ular Markaziy Osiyo hududida salkam ming yil (arablar kelgunga qadar) saqlanib qoldi.

Bu davrning o'ziga xos xususiyati shuki, Markaziy Osiyo, Mesopotamiya, Misr, Eron, Yunoniston, Xitoy, Xindiston madaniyatlarining bir-biriga o'zaro ta'siri ijobji rol o'ynaydi. Omuxtalik bu davr madaniyati va san'ati uchun hos xususiyat bo'lib, mahalliy belgilarning Xindiston, Xitoy, Misr, Yunoniston madaniyati unsurlari bilan aralashib ketganligini o'zida ifodalaydi. Bu borada Eron, Xitoy, Xindiston bilan mahalliy halqlarning tijorat-iqtisody aloqalari ham katta rol o'ynagan. "Ipak yo'li" - Vaxsh Qorategin va Oloy vodiysi orqali Qashqarga, G'arbiy yo'l Parfiyadan Eron orqali Suriyaga olib borgan. Boshqa yo'l quiyi Amudaryo bo'ylab davom etgan. "Oltin yo'l" Davon (Farg'ona) orqali Issiqko'ldan o'tib Sibirga tomon cho'zilgan. Xindistondan ziravorlar, mushkanbarlar, Xitoydan ipak matolar, temir, nikel va mo'yna keltirilgan. SHunday qilib, Markaziy Osiyodagi moddiy va ma'nnaviy madaniyatni shakllanishi va rivojlanishida O'rta va yaqin Sharq xalqlarining o'zaro ta'siri katta bo'lgan. Demak, tariximizning mana shunday oltin zarvaraqlarini o'rganishimiz yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, "... ajdodlarmizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs - komil insonni tarbiyalashdan iborat".

O'zbek xalqining shakllanishidagi ikkinchi muhim davr bu IX-XII asrlar hisoblanadi. Bu davrda Markaziy Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda hozirgi o'zbeklarga xos qiyofa mahalliy aholining asosiy qismini tashkil etadi. Ilgari biz bu jarayonni XI-XII asr etnik jarayonlari bilan bog'lar edik. Keyingi yillarda shu davr materiallarini ikki tarixiy davrga IX-X va XI-XII asrlarga ajratish muvaffaq bo'lindi. Natijada O'zbekiston hududida IX asrda, bizning tadqiqotlar bo'yicha, aholining antropologik qiyofasida keskin o'zgarishlar yuz berganligini kuzatdik. Markaziy Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda mahalliy aholining tili uch marta o'zgardi SHarqiy eron tillari o'rniiga g'arbiy eron tillari (fors tili) va eramizning birinchi asrlaridan turkiy tillar keng tarqala boshladi. O'zbek xalqining shakllanishida uchinchi muhim davr XV asr oxiri va XVI asr hisoblanadi. Bu davrda Markaziy Osiyoga Dashti Qipchoq o'zbeklari kirib keladi va ular mahalliy aholiga o'z nomini beradi.

Tariximizning faxrli davrlaridan yana biri sharq Renessans davri bo'lib, bu davr bobokalonimiz Amir Temur xukmronligi va asos solgan buyuk sultanatida fan, san'at, madaniyat

gullab yashnashi uchun yaratilgan omillar asosida vujudga kelgan sivilizatsiyani e'tirof etmay bo'lmaydi. Ushbu davrda musiqa madaniyati sohasida jadal rivojlanishlar Temurning saroy musiqachisi Abdulqodir Marog'iy, ungacha bo'lgan maqomlar tushunchasini aloxida ladlar tushunchasidan duvazdaxmaqom ya'ni bir turkumga jamlashtirilgan maqomlar tizimi kabi yuksak musiqa san'atiga tegishli monumental asar vujudga keldi. Madaniy hayot gullab yashnadi.

O'zbek xonliklari davrida, keyin, Rossiya mustamlakachiligi va Sho'rolarning Qizil Imperiyasi davrida o'zbek xalqi parokanda bo'lib ketdi. Milliylik yo'qoldi. Ayniqsa, Sho'rolar davrida "yagona sovet xalqi"ni shakllantirmoqchi bo'lgan noilmiy shovinistik siyosat davri qiyin kechdi. Shuning uchun ham o'zbek xalqining millat bo'lib rivojlanish yangi davri 1991 yildan-Respublikamiz mustaqillikka erishgan kundan boshlandi.

Xalqimiz siyosiy mustaqillik va ozodlikni qo'lga kiritgach, o'z taqdirini chinakam egasi, o'z tarixining ijodkori, o'ziga xos milliy madaniyatining sohibiga aylandi.

Tarixdan ma'lumki, musiqa ijrochilik san'ati qadim davrlardan buyon mavjud bo'lib, bizgacha uzoq, taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan holda, o'zining hozirgi mukammal ko'rinishida etib keldi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Farobiy o'zining "Katta musiqa kitobi"da, Safiuddin Urmaviyning musiqiy risolasida, Abdulqodir Marog'iyning "Jami al-alxon fi-ilm al-musiqiy" risolasida, Axmadiyning "Sozlar munozarasi" nomli asarida, Zaynullobiddin Xusayniy "Risolai dar bayoni qonuni va amaliy musiqiy" risolasida, Amuliy "Musiqiy risola"larida musiqa cholg'ularini o'rganish bilan birga, uni tadqiq etish masalalari ham to'xtalib o'tganlar va o'z davrlarning musiqiy cholg'ulari haqida ma'lumotlar berishgan.

Xozirgi kunda ijro etilayotgan yalla, ashula, katta ashula, doston, cholg'u kuylari va maqomlar milliy musiqaning etuk janrlari xisoblanadi. Mumtoz musiqa deganda, millatga, ya'ni, o'zbek xalqiga mansub, uning etuk sozanda bastakorlari tomonidan asrlar davomida yaratilagan musiqa san'ati namunalari ko'zda tutiladi. Ushbu musiqa boshqa musiqa ijodiyoti namunalaridan bir necha o'ziga xos xususiyatlar bilan farqlanadi.

O'zbek an'anaviy musiqasi o'tmishdan ikki yo'nalish, ya'ni bir-biridan paydo bo'luvchi va bir-birini to'ldiruvchi, shu bilan birga o'zining alohida xususiyatlari va sifatlariga ega bo'lgan yo'nalishlardan tashkil topgan. Bular birinchisi, musiqa folklori bo'lsa, ikkinchisi ijodkorlarning musiqiy tafakkuri bilan to'ldirilgan mumtoz musiqa yo'nalishidir. Xar ikki yo'nalishning o'zgacha uslubi, yo'nalishi, xisobi bor.

1. Og'zaki ijodkorlik mumtoz musiqa xalq tomonidan yaratilib, og'izdan og'izga, avlodan avlodga, ustozdan shogirdga o'tib kelgan ijod maxsulidir. Qadim zamonlarda ilk bor musiqa namunalari omma (xalq) tomonidan ijod qilingan.

2. An'anaviylik mumtoz musiqa namunalari an'ana sifatida saqlanib, rivojlanib kelmoqda.

Og'zaki an'anadagi profesional musiqa deganda murakkab xolatda rivojlangan qo'shiq va ashulalar, maqomlarni inobatga olamiz. An'ana deganda uzoq vaqt davomida xalq tajribasidan o'tib, odat tusiga kirgan tadbir yoki xususiyat tushuniladi. An'ana o'ziga xos ijtimoiy xodisa bo'lib, kishilarning ongida, xayotida o'z o'rinni topgan, avloddan avlodga o'tadigan, takrorlanadigan, xayotnnig barcha soxalarida qa'bul qilingan tartib va qoidalar silsilasidir[3:8]. U kishilarning turmushiga singib ketgan, ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti xarakatdir, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq atvor qoidalari va ko'nikmalar, urf odat va marosimlar yig'indisidan iboratdir.

An'anaviy hayot tarzi, axloq me'yordi hamda musiqaning ma'naviy ozuqasi bo'lgan milliy maqom san'atida insonni kamolotga undaydigan dunyoqarashlardan kelib chiquvchi boy mentalitet mavjud. "Maqom – ohangga joylashgan tafakkurdir. U qog'ozga bitilmagan, toshga o'yilmagan kitob ... uning ohanglari ona zaminga mehr uyg'otadi"[4:35].

XULOSA

An'anaviy musiqa badiiy jarayon bo'lib, unga xalq tomonidan yaratilagan, asrlar osha ustoz shogird an'anasi asosida bizgacha etib kelgan xalq musiqa ijodi yoki musiqa folklori va etuk sozanda bastakorlar tomonidan ijod etilgan mumtoz musiqasi kiradi. Bu ijodiyot namunalari og'zaki an'anada saqlanib, sayqal topib, barkamol musiqa asari sifatida rivojlanib kelmoqda.

O'zbek mumtoz musiqasi o'tmishdan o'zining teran ma'noga ega ekanligi, murakkab va mukammalligi hamda beqiyos an'analarni o'zida mujassam etganligi bilan o'zga xalqlar musiqasidan tubdan ajralib turadi. Mazkur musiqa ijodiyotida xalqining o'tmish an'analari, boy va

ILMIY AXBOROT

teran ma'nolarga asoslangan tarixi muxrlangan. Ularning har bir namunasi tarixdan bir sadodir. Binobarin, ularni qanchalik o'rganmaylik, qanchalik sirlaridan vofiq bo'lmaylik, shunchalik yangi qirralari ochilib, o'zining benazir xususiyatlarini namoyon etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. YUksak ma'naviyat – engilmas kuch. –Toshkent.: Ma'naviyat. 2008. B- 143
2. O'zbekiston tarixi fanining predmeti, nazariy-metodologik asoslari, manbalari va uni o'rganishning ahamiyati.
3. <https://uz.denemetr.com/docs/768/index-280649-1.html>
4. Said Ahmad. Ilohiy ne'mat. –Toshkent.: Tafakkur jurnali. 1994. № 1-son. B- 35
5. Исаков, У. (2023). ЎЗБЕК МУСИҚА САНЪАТИ ВА УНИНГ ЁШЛАР МАЪНАВИЙ ДУНЁҚАРАШИ ШАКЛПАНИШИДА ЎЗИГА ХОС АҲАМИЯТИ. *Uzbek Scholar Journal*, 16, 190-195.
6. Исаков, У. Т. (2022). ЎЗБЕК МУСИҚА МАДАНИЯТИ РИВОЖЛАНИШ ЖАРАЁНЛАРИНИНГ НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ, МАНБАЛАРИ ҲАМДА УНИ ЎРГАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ. *Science and innovation*, 1(1), 625-636.
7. SultonaliMannopov, A., AbdusalomSoliev, U., & TokhirShokirov, R. (2021). Development of Uzbek National Singing Art during Independence. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 6845-6853.
8. Хожимаматов, А. (2023). ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА МИЛЛИЙ МУСИҚИЙ МЕРОСГА МУНОСАБАТНИ ЎЗГАРИБ БОРИШ ТЕНДЕНЦИЯСИНИНГ НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(2), 249-253.